XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-iyul VII-12-102-6-0-K/25 Namangan viloyati

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga asosan, Namangan viloyati hokimining 2025-yil 17-iyundagi 01/10-753-son taqdimnomasi asosida Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-son Kengash qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida, xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining:

147-moddasiga asosan bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish ajratiladigan budjet mablag‘larining cheklangan miqdorining 10 va undan ortiq foiz miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tomonidan amalga oshirilishi;

10 foizdan kam miqdorda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan amalga oshirilishi, bundan ushbu Kodeks 145-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasnoligi;

Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi tasarrufidagi bir budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchidan boshqa budjet tashkiloti va budjet mablag‘lari oluvchi uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘larni o‘tkazish hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar so‘roviga ko‘ra tegishli hududiy moliya organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-noyabrdagi PQ-355-sonli qarori hamda budjet tashkilotlarining murojaatlari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining “Namangan viloyatining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-030-6-0-K/24-sonli Kengash qarorining:

3-ilovasidagi Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar xarajatlar rejasi 1-ilova asosan;

5-ilovasidagi Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlar rejasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining 2025-yil 23-maydagi VII-10-75-6-0-K/25-son qarori 1-ilovasining 8-qator Ajratilgan mablag‘lar miqdori (ming so‘m) ustunidagi “6 000 000,0” raqamlari “3 000 000,0” raqamlariga o‘zgartirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 3-apreldagi 05-14/1-917-son yig‘ilish bayonining 4-bandiga asosan, viloyat budjetining 2025-yil birinchi hisobot chorak yakuni bo‘yicha aniqlangan prognozdan oshirib bajarilishidan 3,0 (uch) milliard so‘m viloyat hokimining 2025-yil 24-iyundagi 110-6-0-F/25-son farmoyishiga asosan yo‘naltirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (M.Abdullayev) ushbu Kengash qarorini ijrochilarga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi I.Ikromov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Baxriddinov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 25-iyuldagi
VII-12-102-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining viloyat budjetidan mablag‘ oluvchi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar xarajatlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Xarajatlariga kiritilayotgan o‘zgarish summasi (ming. so‘m)
1	Namangan viloyati hokimligi	-15,000.0
2	Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	74,501.0
3	Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi	-300,000.0
4	Viloyat sport boshqarmasi	-288,000.0
5	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasi	-250,000.0
6	Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi	146,499,0
7	Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hududiy boshqarmasi	165,000.0
8	Mudofaa ishlari boshqarmasi	664,000.0
9	Tibbiy sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkaziladigan transfertlar	50,242,542.0
10	Namangan viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi	-51,071,542.0
11	Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi	-156,000,0
	JAMI	**-788,000.0**

Xalq deputatlari Namangan viloyati
Kengashining
2025-yil 25-iyuldagi
VII-12-102-6-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Namangan shahar va tumanlar mahalliy budjetlari xarajatlar rejasiga kiritilayotgan o‘zgarishlar miqdori

№	Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar	Xarajatlariga kiritilayotgan o‘zgarish summasi (ming. so‘m)
1	Namangan shaxar	257,200.0
2	Mingbuloq tumani	-48,652.0
3	Namangan tumani	-24,914.0
4	To‘raqo‘rg‘on tumani	-331,595.0
5	Uychi tumani	733,190.0
6	Chortoq tumani	-411,605.0
7	Yangiqo‘rg‘on tumani	-75,376.0
8	Norin tumani	367,753.0
9	Uchqo‘rg‘on tumani	-41,124.0
10	Chust tumani	363,123.0
JAMI		**788,000.0**